

Ya.A. Nurumbekova

Guliston davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti dotsenti

Yaxshilikova Sevinch Faxriddin qizi

Pedagogika yo`nalishi 1 kurs talabasi

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimizda joriy qilingan yangi ta`lim tizimi ya`ni, inklyuziv ta`lim tizimining takomillashuvi va hozirgi kunda qo`llanilishi haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *inklyuziv ta`lim, korreksion, tarbiya, pedagog, ta`lim, ota-onal, maxsus ta`lim, metod.*

Inklyuziv ta`lim (ingliz tilidan olingan bo`lib, inclusive, inclusion - uyg`unlashmoq, uyg`unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma`nolarini bildiradi) nogiron va soglon bolalar o`rtasidagi to`sqliarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta`limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko`ra nogiron bo`lgan) o`smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo`naltirilgan umumta`lim jarayoniga qo’shishni ifodalovchi ta`lim tizimidir. Imkoniyati cheklangan bolalarga imkoniyatidan kelib chiqqan holda ta`lim berish va tarbiyalash uchun qulay sharoitlar yaratish va darsga bo`lgan qiziqishi tobora orttirish uchun manashu ta`lim shakli hozirgi kunda keng qo`llanilmoqda.

O‘quvchilarni inklyuziv ta`lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish hamda chiqarish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boshqarmalari huzurida tashkil etilgan Psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya (keyingi o‘rinlarda — psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya) xulosasiga ko`ra, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan amalgalash oshiriladi [1].

“Alovida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta`lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta`lim-tarbiya metod va vositalarini qo’llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo’llab-quvvatlash” - to‘g‘risida Vazirlar mahkamasi qarori hozirgi kunda amalga oshirilmoqda.

Inklyuziv ta`limning maqsadi — alovida ta`lim ehtiyojlari bo`lgan o‘quvchilar uchun muktabda maxsus vosita va metodlarni qo’llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siksiz moslashtirilgan ta`lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg`unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta`lim berishni ta’minlashdan iborat.

Inklyuziv ta’lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarga quyidagi toifadagi bolalar qabul qilinadi:

- ✓ eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (eshitish qobiliyatining yo‘qotilishi 60 Db gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘srimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);
- ✓ ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar (ko‘rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo‘lgan rivojlanishida qo‘srimcha buzilishlar bo‘lmagan bolalar);
- ✓ somatik kasalliklar (psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar);
- ✓ nutqida og‘ir nuqsonlar bo‘lgan bolalar (alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizartriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish);
- ✓ tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo‘lgan bolalar (bolalar tserebral falaji, skolioz, poliomiyelit, miopatiya, osteomiyelit, amputatsiya, bo‘y o’sishining yetishmovchiligi — pakanalik);
- ✓ aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo‘lgan bolalar;

B.X. Xodjayevning "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" kitobida, imkoniyati cheklangan bolalarni dars jarayoniga qamrab olinishi jahon miqyosida "inklyuziv" yoki "integratsion" kabi atamalar bilan ataladi-deb aytib o‘tilgan [2].

Integratsiyalashgan ta’lim bu - diqqat markazida bolaning aynan mактабга kelib-ketish muammozi turgan, maxsus ehtiyojli bolani mактаб ta’limiga qamrab olishdir. Ushbu ta’lim tizimining quyidagi shakllari mavjud:

Jismoniy integratsiya. Integratsyaning bu shakli nogiron va nogiron bolmagan bolalar o‘rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy mактаб bilan yomna-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo‘lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

Funksional integratsiya. Bu shakl nogiron va nogiron bo‘lmagan bolalar o‘rtasidagi funksional muammolami kamaytirishga qaratilgan.

Ijtimoiy integratsiya. Integratsyaning bu shakli ijtimoiy muammolami kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo‘lmagan bolalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani qo‘llab-quvvatlovchi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim sharoitida o‘qitish mактабларaro qatnab yuruvchi o‘qituvchi, ya’ni, resurs o‘qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta’lim amaliyotida mактабларaro qatnab yuruvchi o‘qituvchi va oddiy sinf o‘qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin. O‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan bolalarga qo‘srimcha tarzda ta’lim va tarbiya berishda ta’lim beruvchi o‘sha shaxs bilan birgalikda darslardan so‘ng qo‘srimcha mashg‘ulot olib borishsa, bolaning o‘zlashtirish darajasi sog‘lom bola bilan tenglasha olishi mumkin.

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan birgalikda faqat pedagog emas balki ota-onada ham birdek harakat qilib ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishi kerak.

Mактабларaro qatnab yuruvchi resurs pedagog nogiron bolalarni

ular uchun zarur bo‘lgan qo‘llanmalar, jihozlar bilan ta’minlaydi, homiylar topadi, imkoniyati cheklangan bolalar, sog‘lom bolalar

hamda sinf o‘qituvchisi o‘rtasidagi mustahkam aloqani o‘rnatadi, ota-onalar, bolalar, oddiy sinf o‘qituvchilari va maktab ma’muriyatiga maslahatlar beradi. Shu tarzda bolaning o‘zlashtirish darjasini yaxshilanadi [3].

Inklyuziv ta’lim jarayonida bolaning kamchiliklari inobatga olingan holda u uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy va ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish asosiy vazifa sanaladi. Shundagina ta’lim oluvchi ham yaxshi natijalarni qo‘lga kiritadi.

Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy mактабда bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday mактабда ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘рганиш uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa mактабга qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog‘lom bolalar qatoriga qo‘sib sifatli ta’lim olishini ta’minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir. Nuqsoni bor bolalarni har tomonlama tarbiyash orqali ularni ona-Vatanga, tabiatga nisbatan go‘zallikni his etishga, tafakkurini rivojlantirishga, bolalarning talab-ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risidagi qarori -4860 13.10.2020B.

X.Xodjayevning „Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” 189-bet

2.M.X.Toxtaxojayev „Pedagogika nazariyasi va tarixi” 192-bet

3.O`J.Yo`ldoshev „ Umumiy Pedagogika”

4. 5. D.S.Qaxarova “ Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo‘llanma 2014-yil